

KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYATGA BOG'LIQ BO'LMAGAN DAROMADLAR VA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Dilnoza Xudaynazarova

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası assistenti

Sadinova Marjona Umrzoq qizi

Ahrorov Shohjahon Ravshan o'g'li

Mexriddin Tojimurodov Sadriddin o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14272032>

Annotatsiya: Muallif tomonidan ushbu ilmiy maqolada mamlakatimizda tashkil etilgan korxonalarning asosiy faoliyatga bog'liq bo'lmagan daromad va xarajatlarni hisobi, ularni takomillashtirish yo'nalishlari metodlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: korxona, iqtisodiy o'sish, optimallashtirish, takomillashtirish, investitsiya, ERP, BRP, CRM.

Аннотация: В данной научной статье автором представлена информация о методах учета доходов и расходов предприятий, созданных в нашей стране, не связанных с основной деятельностью, направлениях их совершенствования.

Ключевые слова: предприятие, экономический рост, оптимизация, совершенствование, инвестиции, ERP, BRP, CRM.

Abstract: In this scientific article, the author provides information on the accounting of income and expenses of enterprises established in our country, not related to their main activities, as well as methods for their improvement.

Keywords: enterprise, economic growth, optimization, improvement, investment, ERP, BRP, CRM.

Kirish.

Mustaqillik yillaridan so'ng mamlakatimizda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning ishlashi mamlakatning iqtisodiy o'sishini, ish o'rinlarining yaratilishini, eksportni ko'paytirishni va aholi turmush darajasini yaxshilashni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston iqtisodiyoti ko'p tarmoqli bo'lib, shu bilan birga kichik, o'rta va yirik korxonalar faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda korxonalarning faoliyati doimiy o'zgarish va rivojlanishga yo'naltirilgan. Hukumat iqtisodiyotni liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratmoqda. Shuningdek, mehnat bozorini optimallashtirish, ekologik muammolarni hal qilish va xalqaro savdoni rivojlantirish kabi vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Korxonalarning barqaror va muvaffaqiyatli faoliyati mamlakat iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism.

Korxonalarning bozorga mahsulot yetkazib berishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-xarajatlarni darajasi hisoblanadi. Har qanday tovarni ishlab chiqarish iqtisodiy resurs sarflarini taqozo qiladi, ular ham ma'lum narxga ega bo'ladi. Korxona bozorga taklif

qiladigan tovar miqdori iqtisodiy xarajatlar, resurs narxlari darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotiladigan narxlarga bog'liq. Ishlab chiqarish xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi. Korxona faoliyatining umumiy rentabelligini va moliyaviy barqarorligini aniqlashda asosiy faoliyatga bog'liq bo'lmagan daromadlar va xarajatlar alohida ahamiyatga ega. Ular korxona operatsiyalarining samarasizligini yoki kutilgan daromadlar bo'lmagan boshqa manbalardan kutilgan foydalarni ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada korxonalarda asosiy faoliyatga bog'liq bo'lmagan xarajatlar va daromadlar hisobini ko'rib chiqamiz.

Asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar - bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatidan tashqaridagi faoliyatlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardir. Bu turdagi xarajatlar korxonaning asosiy biznes faoliyatiga bevosita aloqasi yo'q, ammo ular korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir qiladi. Asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar odatda investitsiya faoliyati, moliyaviy operatsiyalar, ijaraga berish, qimmatli qog'ozlar savdosi, va boshqa qo'shimcha faoliyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Ularning 3 turi mavjud:

1. Moliyaviy xarajatlar
2. Investitsiya xarajatlari
3. Tasodifiy xarajatlar

Moliyaviy xarajatlarga foiz xarajatlari va valyuta kursi farqlari xarajatlari kiradi. Tashkilotlar o'zlari olgan qarzlar yoki kreditlar bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshiradi. Bu xarajatlar korxonaning moliyaviy hisobotida ko'rsatiladi. Moliyaviy xarajatlar hisobini takomillashtirish uchun tashkilotlarning yoki kompaniyalarining xarajatlarni yanada samarali va aniqroq hisoblash, nazorat qilish va boshqarish tizimini rivojlantirish zarur. Ushbu jarayon moliyaviy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va qarorlar qabul qilishda to'g'ri ma'lumotlar asosida harakat qilish imkonini yaratadi.

Investitsiya xarajatlariga sotish bilan bog'liq xarajatlar va ko'chmas mulkni saqlash yoki aktivlarni nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar kiradi. Investitsion xarajatlarni hisoblash va ularni takomillashtirish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini va rentabelligini oshirishga yordam beradi. Yangi texnologiyalar, innovatsion metodologiyalar, aniq prognozlash va yaxshilangan rejalashtirish jarayonlari orqali investitsion xarajatlar hisobini samarali boshqarish mumkin. Bu esa kompaniyaga uzoq muddatda o'z faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Tasodifiy xarajatlarga sug'urta xarajatlari, jazo yoki da'vo xarajatlari, grantlar va yordamlar kabi xarajatlar kiradi. Tasodifiy xarajatlar ko'pincha, masalan, favqulodda holatlar, kutilmagan xarajatlar, yoki aniq rejalashtirilmagan vaziyatlar natijasida yuzaga keladi. Tasodifiy xarajatlar hisobini takomillashtirish, ularni aniqlash, tahlil qilish, boshqarish va rejalashtirish jarayonlarini yaxshilash orqali kompaniyalar kutilmagan moliyaviy muammolarni engib o'tishlari va uzoq muddatda barqarorlikni ta'minlashlari mumkin.

Asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar — bu korxonaning asosiy faoliyatidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlardir. Bu turdagi daromadlar odatda korxonaning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatiga bevosita aloqasi bo'lmaydi, lekin ular korxonaning umumiy moliyaviy holatiga ta'sir qiladi. Asosiy faoliyatga bog'liq bo'lmagan daromadlar ko'plab turdagi moliyaviy va investitsion faoliyatlardan kelib chiqishi mumkin. Ularning 4 turi mavjud:

1. Investitsion daromadlar
2. Ijara daromatlari
3. Moliyaviy daromadlar
4. Soliq imtiyozlari va subsidiyalardan kelib tushadigan daromadlar

Investitsion daromadlar korxona asosiy faoliyatidan tashqaridagi investitsiya faoliyati natijasida olinadi. Investitsion daromadlar, odatda, aksiyalar, obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlar orqali olinadi. Bu turdagi daromadlar korxonaning moliyaviy holatini yaxshilashda va rentabellikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ijara daromatlari korxona yoki shaxsning mulkni boshqalarga ijara shartnomasi asosida taqdim etishdan olingan daromadlardir. Bu daromadlar mulkni vaqtincha boshqalarga foydalanish uchun berish orqali olinadi. Ijara daromatlari ko'pincha ko'chmas mulk bo'yicha eng keng tarqalgan hisoblanadi, lekin asbob-uskunalar, transport vositalari va boshqa aktivlar bo'yicha ham mavjud.

Moliyaviy daromadlar korxona yoki shaxsning moliyaviy aktivlardan olingan daromadlarini to'g'ri hisoblash, tahlil qilish va hisobot berish jarayoni hisoblanadi. Moliyaviy daromadlar asosan kreditlar, depozitlar, qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar), valyuta savdosi, foizlar, dividendlar va boshqa moliyaviy operatsiyalardan olinadi.

Soliq imtiyozlari va subsidiyalar — bu davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni rag'batlantirish, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish yoki atrof-muhitni himoya qilish kabi maqsadlar uchun beriladigan moliyaviy yordamlar va imtiyozlardir.¹

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq korxonalarda yuqorida keltirilgan daromad va xarajatlar hisobini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun bir qator chora-tadbirlar ko'rilmogda.²

Korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

1) Korxona yalpi mahsulotini ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash, unumdorligi yuqori texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minlash, korxonada mehnat unumdorligini oshirish, korxonalarda xomashyo ta'minotini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy ishlab chiqarish vositalardan maqsadga muvofiq

¹ https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/28/NamDU-ARM-2211-Korxona_iqtisodiyoti..pdf

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori

ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash, mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

2) Korxonalarda mahsulotlar tannarxini pasaytirish uchun ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijasida ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, xodimlarni rag'batlantirish tizimini yaxshilash lozim.

3) Korxonalar faoliyatiga bozor munosabatlarini joriy etishni jadallashtirish uchun korxonalarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotish jarayonini erkinlashtirish, investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish, korxonalar faoliyatiga xizmat qiluvchi infratuzilma sohalarini rivojlantirish, korxonalar faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish, korxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni qo'llab-quvvatlash zarur.³

Korxonalar faoliyatini takomillashtirish va optimallashtirish uchun xalqaro metodlar mavjud. Ushbu metodlardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Biznes jarayonlarini qayta loyihalash (BPR – Business Process Reengineering) — bu kompaniyaning mavjud ish jarayonlarini to'liq tahlil qilish va ularni yangi, samarali shaklda qayta tashkil etish jarayonidir. BPR odatda tashkilotning faoliyatini tubdan yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi.⁴

Korxonalarda biznes jarayonlarini optimallashtirishning eng samarali yo'llaridan biri bu ERP tizimlarini joriy etishdir. Enterprise Resource Planning (ERP) tizimlari korxonaning barcha resurslarini (moliyaviy, ishlab chiqarish, savdo, kadrlar va boshqalar) markazlashtirilgan platformada boshqarishga imkon beradi.⁵

Customer Relationship Management (CRM) tizimlari kompaniyalarga mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash va ularning ehtiyojlariga tezkor javob berishga yordam beradi. CRM tizimi mijozlar haqida ma'lumotlarni markazlashtiradi va ularni tahlil qilish imkonini beradi.⁶

Xulosa

Korxonalarda biznes jarayonlarini boshqarish va optimallashtirish uchun tashkil etilgan loyihalar korxonaning samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va sifatni yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday loyihalar ERP tizimlari, CRM tizimlari, lean ishlab chiqarish, raqamli transformatsiya, BRP kabi metodologiyalarni o'z ichiga oladi. Bu loyihalar nafaqat jarayonlarni soddalashtirish, balki kompaniyaning umumiy raqobatbardoshligini oshiradi.

References:

1. NamDU_Arm, Korxona iqtisodiyoti
2. Эшпулатова, З. (2022). ДАРОМАДЛАР ҲИСОБИ ВА ХАЛҚАРО ТАЖРИБА. TOSHKENT

³ <https://newjournal.org/new/article/view/11540/11184>

⁴ <https://www.ibm.com/topics/business-process-reengineering>

⁵ [https://www.sap.com/products/erp/what-is-erp.html#:~:text=Enterprise%20resource%20planning%20\(ERP\)%20is,a%20single%20source%20of%20truth](https://www.sap.com/products/erp/what-is-erp.html#:~:text=Enterprise%20resource%20planning%20(ERP)%20is,a%20single%20source%20of%20truth)

⁶ [https://www.techtarget.com/searchcustomerexperience/definition/CRM-customer-relationship-management#:~:text=CRM%20\(customer%20relationship%20management\)%20is,retention%20and%20drive%20sales%20growth](https://www.techtarget.com/searchcustomerexperience/definition/CRM-customer-relationship-management#:~:text=CRM%20(customer%20relationship%20management)%20is,retention%20and%20drive%20sales%20growth)

3. DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI "O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY, 911.
4. Baratovna, E. Z. (2023). THE CONCEPT OF OTHER COMPREHENSIVE INCOME AND ITS REFLECTION IN THE FINANCIAL STATEMENTS. Gospodarka i Innowacje., 31, 36-39.
5. Musayeva, S. I. (2024). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF INTERACTIVE METHODS INTRODUCING THE CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) APPROACH. World Scientific Research Journal, 32(1), 217-219.
6. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo rivojlantirish.
7. Эшпулатова, З. Б. (2022). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕРВОГО ПРИМЕНЕНИЯ

